

## ARGUMENTLI ESSE YORDAMIDA O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI BAHOLASH AHAMIYATI

**Abdiraimov Shohruh Samad o'g'li**

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi, pedagogika  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13888592>

**Annotatsiya.** Baholash jarayonida o'quvchilarning yozma nutqini baholashda diktan, bayon, insholardan foydalaniladi. Ta'lim rivojlangan davlatlarda esa bu jarayonda argumentli esse, interpretatsion esse, hikoyaviy esse, qiyosiy esse, sabab-oqibat essesi kabi bir qator esse turlari qo'llanadi. Ushbu tezisdan olimlarning esse yozish jarayoni va metodikalari hamda argumentli esse yozish asoslariga oid tadqiqotlaridan foydalanib, o'quvchilarning yozma nutqini baholashda argumentli esselardan foydalanish ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotda qiyoslash, tahlil qilish metodlari ishlatilgan. Natijada argumentli esse o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, izchil va qolipli yozish, shaxsiy pozitsiyalarini asosli ravishda himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** *yoza nutq, baholash, esse, argumentli esse, shaxsiy pozitsiya.*

Xalqaro integratsiyalashuv, ilm-fanning tez sur'atlarda rivojlanishi O'zbekistonda ta'limga yangicha yondashuvlarni tatbiq etishni taqozo qila boshladi. Shuningdek, so'nggi yillarda ona tilini o'qitishga qaratilgan e'tiborning kuchayishi va amaliy ehtiyojning oshib borayotgani zamonaviy tendensiyalarni amaliyotga joriy etish, samaradorligini oshirish zaruratini paydo qildi. Bu esa o'quvchilarda tildan amaliy foydalana olish, matn mohiyatini tushunish, tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqara olish, o'z fikrini asosli, izchil, ravon va estetik jihatdan boy tarzda og'zaki va yozma savodli bayon qila olish ko'nikmalarini shakllantirishni hamda nutqiy ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini baholashni ona tili ta'limining ustuvor masalalaridan biriga aylantirdi. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarning yozma nutqini obyektiv baholash mexanizmlarini va zamon talablariga mos baholash vositalari va usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Asosiy qism.**

Jahon tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usul va vositalari, xususan, esse va uning turlari, argumentli esse bir qator olimlarning ilmiy-metodik ishlarida alohida tadqiq qilingan. Jumladan, Roy Peter Clark qo'llanmasida[1] yozma nutqda ijodkorlik va samaradorlikni oshirishga yordam beradigan 55 ta asosiy yozish strategiyasi va ulardan foydalanish shart-





sharoitlari haqida to'xtaladi. Boshqa bir olim Don Shiach esa o'z asarida[2] esse yozish jarayonining bosqichlari, mavzu tanlashdan tortib, rejalashtirish, yozish va tahrirlash jarayonigacha batafsil ochib beradi. Shuningdek, C.Birkenstein boshchiligida bir qator olimlar qo'llanmasida[3] yozma nutqda bahs yuritish usullari, fikrlarni shakllantirish, dalil keltirishda yordam beruvchi shablonlar, argumentli esse yozish uchun zarur bo'lgan asosiy strategiyalar, shaxsiy mulohazalarni qanday qilib boshqalarning fikrlari bilan bog'lay olish yo'llari ochib beriladi. Shular qatorida, John D. Ramage boshchiligidagi boshqa bir jamo qo'llanmasida[4] argumentli esse tuzilishi, fikrlarini qanday rivojlantirish, o'z pozitsiyasini ishonchli tarzda himoya qilish yo'llari bayon etiladi. Boshqa bir qo'llanmada[5] esa argumentli essening shakllari, turli mavzular va vaziatlarni ochib berishda argumentlardan foydalanish yo'llari, o'z fikrlarini ishonchli tarzda yetkazish usullari haqida ma'lumot beriladi. Biroq o'quvchilarni yozma nutqini baholashda argumentli essedan foydalanish ahamiyati haqida alohida to'xtalmaydi.

O'zbek tilidagi manbalarda Baxtiyor Mengliyev boshchiligidagi tayyorlangan 10-sinf ona tili darsligida[6] argumentli esse izohi va unga namuna keltiriladi.

O'quvchilarda hayotiy vaziyatlarga yozma tarzda munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirishda esselardan foydalanish samarali. Chunki esse – aniq mavzu yoki vaziyat yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalar asosida argumentlarga tayanib publitsistik uslubda yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. Til ta'limida argumentli esse, interpretatsion esse, hikoyaviy esse, qiyosiy esse, sabab-oqibat essesi kabi bir qator esse turlaridan foydalaniladi. Ularning har biri o'quvchining yozma nutqini rivojlantirish bilan birga, mantiqiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini ham shakllantirib boradi. Bular ichida argumentli esse alohida ahamiyatga molik. Negaki o'quvchida yozma nutqini rivojlantirish bilan birga, muayyan masala yuzasidan shaxsiy pozitsiyasini himoya qilish layoqatini ham shakllantiradi. Argumentli esseda muhokama talab vaziyat mavzu sifatida tanlanadi.

Mavzuda berilgan vaziyat bo'yicha esse yozuvchi (o'quvchi) tomonidan muayyan taraf-pozitsiya tanlanadi, o'quvchidan tanlangan pozitsiya bo'yicha fikrlarni asosli tarzda ifodalash, o'zining shaxsiy fikr va mulohazalari bayon qilish talab etadi. Argumentli esse ham mavzu, kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi (1-rasmga qarang).





### 1-rasm: argumentli esse va uning tuzilishi

Ushbu turdagi esselarni yozishda vaziyat yuzasidan o'z pozitsiyangizni himoya qilishingiz, pozitsiyangizni qo'llab-quvvatlovchi dalillarni keltirishingiz kerak. Bunda avvaliga qarama-qarshi fikrni taqdim etishingiz, so'ngra bu fikrga kuchli dalillar bilan qarshi turib, fikringizni asoslashingiz lozim. Yuqoridagi esseda ham muallif "*maktabni bitirib, oliy ta'limda o'qish kerak*" degan pozitsiyani asoslashda mansab kursilarini egallash uchun diplom kerakligini, o'qishda yangi do'stlar orttirish, xorijga chiqish mumkinligini ta'kidlaydi, ham o'qib, ham ishlash imkoni mavjud ekanligini inkor etib bo'lmas asos sifatida keltiradi va o'z pozitsiyasini himoya qiladi.

Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkin, argumentli esse yordamida o'quvchilarning yozma nutqini muntazam baholash, avvalo, o'quvchilarda fikrini izchil yozma bayon qilish ko'nikmasini rivojlantirishga rag'bat beradi, qolaversa, ularda muayyan mavzu yuzasidan o'z qarashlarini argumentlar yordamida asoslay olish, pozitsiyalarini himoya qila olish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Clark, R. P. (2008). Writing tools: 55 essential strategies for every writer. Little, Brown Spark.
2. Shiach, D. (2009). How to write essays: a step-by-step guide for all levels, with sample essays. Hachette UK.
3. Birkenstein, C., & Graff, G. (2018). They say/I say: The moves that matter in academic writing. WW Norton & Company.
4. Ramage, J. D., Bean, J. C., & Johnson, J. (1998). Writing arguments: A rhetoric with readings (p. 765). Boston: Allyn and Bacon.



5. Lunsford, A. A., Ruskiewicz, J. J., & Walters, K. (2001). Everything's an Argument (p. 568). Boston, MA: Bedford/St. Martin's.
6. B. Mengliyev va boshq. (2022) Ona tili. 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, – B. 224

